| <i>Jo'raboyeva Turg'unoy Ikromjon qizi</i>                                                                                                                       |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvokognitiv kompetentlikni rivojlantirishning didaktik tizimi.....                                                | 377 |
| <i>Kozimova Sadoqat</i>                                                                                                                                          |     |
| Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlar (science)ni o'qitish orqali ekologik savodxonlikni shakllantirishning pedagogik asoslari .....                             | 380 |
| <i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>                                                                                                                           |     |
| Oilaviy munosabatlarda manipulyativ muloqot indikatsiyasi: psixologik tahlil va eksperimental natijalar .....                                                    | 383 |
| <i>Nishanova Zulfizar Yashin qizi</i>                                                                                                                            |     |
| Bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rni.....                                             | 386 |
| <i>Nurulloyev Firuz No'monjonovich</i>                                                                                                                           |     |
| Talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning tarixiy-pedagogik asoslari (ma'rifatparvar mutafakkirlar merosi misolida).....                       | 390 |
| <i>Sabirov Kaxramon Bektursun o'g'li</i>                                                                                                                         |     |
| Maktabgacha ta'lim yoshidagi 5-6 yoshli bolalarda muammoli vaziyatlarni mustaqil yechish qobiliyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirish.....         | 393 |
| <i>Tillayeva Vasila O'ktam qizi</i>                                                                                                                              |     |
| Kritik fikrlash kompetensiyasining pedagogik va didaktik mazmuni .....                                                                                           | 398 |
| <i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i>                                                                                                                       |     |
| Kurashchi qizlarning texnik harakatlarini kinematik va kinetik modellashtirish .....                                                                             | 402 |
| <i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</i>                                                                                                                          |     |
| Oliy ta'limda ishga doir muloqot asoslari fanini o'qitish orqali talabalarning og'zaki fikrlash va nutq faoliyatini rivojlantirish .....                         | 406 |
| <i>Yuldasheva Dilnoza Bekturodovna</i>                                                                                                                           |     |
| Роль онлайн-платформ и образовательных сервисов в формировании ответственности студентов.....                                                                    | 409 |
| <i>Гуламов Жасур Баходирович</i>                                                                                                                                 |     |
| Изучение изменений полярного переключения негативных и позитивных эмоций средового воздействия в процессе развития/реабилитации механизмов эмпатии .....         | 413 |
| <i>Ягудин Дмитрий Рустамович</i>                                                                                                                                 |     |
| Produktiv nutq ko'nikmalari orqali nutq aktlarini o'qitish samaradorligi.....                                                                                    | 421 |
| <i>Sadikov Erkin Tursunovich</i>                                                                                                                                 |     |
| Проблемы формирования письменной коммуникативной компетенции у студентов выпускных курсов высших учебных заведений .....                                         | 424 |
| <i>Раджабова Зебинисо Анваровна</i>                                                                                                                              |     |
| Pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish – pedagogik innovatsiya.....                                                                                           | 427 |
| <i>M.U. Raxmanova</i>                                                                                                                                            |     |





|                                                                                                                            |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Muammoli o'qitish asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning<br>ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish.....         | 431 |
| <i>Giyasova Shaxnoza Abdurafikovna</i>                                                                                     |     |
| 9–10 yoshli o'quvchilar orasidagi nizolarni korreksion yondashuv bilan boshqarish .....                                    | 435 |
| <i>Qulmatov Sindorqul Ibragimovich, Yarbekova Yulduz Bahromjon qizi</i>                                                    |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarda raqamli mediakompetentlikni rivojlantirish .....                                                  | 439 |
| <i>Mo'minova Madina, Mamasodiqova Saida</i>                                                                                |     |
| Разработка приложения для визуализации и анализа решения<br>задач линейного программирования.....                          | 442 |
| <i>Маматов Ислонбек Ильесович, Бурунова Муниса Баходировна</i>                                                             |     |
| Mustaqil ta'lim topshiriqlarini integrativ modellashtirish tashkiliy-metodik muammo sifatida .....                         | 448 |
| <i>Ibroximova O'g'iloy Inomjon qizi</i>                                                                                    |     |
| Boshlang'ich ta'limda axloqiy tarbiyani baholash va "tarbiya kundaligi"ni joriy etish metodikasi.....                      | 451 |
| <i>Norimboyeva Sarvinov Abror qizi, Norimboyeva Sarvinov Abror qizi</i>                                                    |     |
| Talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishning nazariy-pedagogik va didaktik asoslari .....                   | 456 |
| <i>Xaydaraliyev Xurshid Xamidullayevich</i>                                                                                |     |
| Zamonaviy yosh oilalarda gender munosabatining o'rganilganlik holati .....                                                 | 462 |
| <i>Abduqayumova Gulnoza Karimjon qizi</i>                                                                                  |     |
| Arifmetik progressiyani o'qitishda "progressiya konstruktori" amaliy-tadqiqot metodining samaradorligi....                 | 466 |
| <i>Abdurahmonova Zamira Raxmatullayevna</i>                                                                                |     |
| Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning mazmuni.....                        | 471 |
| <i>Ashurova To'lg'anoy Ergashevna</i>                                                                                      |     |
| Onlayn shaxmat platformalarining boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkuriga ta'siri .....                                  | 475 |
| <i>Boboqulov Chori Urolovich</i>                                                                                           |     |
| Ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish.....                                                                    | 480 |
| <i>Kadirkulov Dilmurod Alimahamedovich</i>                                                                                 |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish mezonlari.....                                                | 485 |
| <i>Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna</i>                                                                                   |     |
| Communicative Language Teaching in Modern Classrooms:<br>Strengths, Limitations, and Pedagogical Implications .....        | 490 |
| <i>Mirzaliyeva Sarvinov</i>                                                                                                |     |
| Pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarining fizikadan metodik faoliyatga<br>tayyorgarligini rivojlantirish .....      | 493 |
| <i>Murtazayev Zohid Murtazayevich</i>                                                                                      |     |
| Zo'ravonlikning inson ruhiyatiga salbiy ta'siri va oqibatlari .....                                                        | 497 |
| <i>Mutabarxon Maxsudova</i>                                                                                                |     |
| STEM ta'limi sharoitida o'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishning<br>transdisiplinar metodik modeli .....      | 501 |
| <i>Normuxamedov Zarif</i>                                                                                                  |     |
| Jadidchilar asarlarida boshlang'ich ta'limga oid pedagogik qarashlarning nazariy asoslari .....                            | 507 |
| <i>Sariboyeva Aziza G'apur qizi</i>                                                                                        |     |
| Pedagogika tarixida dars samaradorligini oshirish bo'yicha qarashlar va<br>amaliyotdagi innovatsion loyihalar tahlili..... | 510 |
| <i>To'raqulova Feruza Jobir qizi</i>                                                                                       |     |
| Yosh qizlarda shaxsiy mustaqillik va oilaviy mas'uliyat muvozanati .....                                                   | 514 |
| <i>To'xtamatova Nargiza, Boltaboyeva Marg'uba</i>                                                                          |     |
| Individual dars mashg'ulotlari orqali boksning faolligini aniqlash xususiyatlari .....                                     | 517 |
| <i>Usmonov Mansur Qurbonmurotovich</i>                                                                                     |     |
| Преимущества и недостатки использования виртуальных лабораторных работ по физике .....                                     | 522 |
| <i>Тилова Турдихол Баратовна</i>                                                                                           |     |
| Neyrolingvistik dasturlashning (NLD) nazariy va amaliy jihatlarini .....                                                   | 529 |
| <i>Xolikova Dilobarxon Maxsitovna</i>                                                                                      |     |



## TALABALARDA VATANPARVARLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK VA DIDAKTIK ASOSLARI

UDK: 355.233.231

Xaydaraliyev Xurshid Xamidullayevich

Farg'ona davlat universiteti, jismoniy tarbiya nazariyasi kafedrasini mudiri,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID ID: 0009-9025-0373

**Annotatsiya:** Maqolada talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishning nazariy-pedagogik hamda didaktik asoslari tahlil qilinadi, mazkur jarayonning mazmuni, shakl va metodlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** fazilat, yoshlar, globallashuv, tarbiya, tafakkur, tizim, kasb, rivojlanish.

**Abstract:** The theoretical, pedagogical, and didactic foundations of developing patriotic qualities in students are analyzed, and the content, forms, and methods of this process are scientifically substantiated.

**Key words:** virtue, youth, globalization, upbringing, thinking, system, profession, development.

**Аннотация:** Рассматриваются теоретико-педагогические и дидактические основы развития патриотических качеств у студентов, а также научно обосновываются содержание, формы и методы данного процесса.

**Ключевые слова:** добродетель, молодёжь, глобализация, воспитание, мышление, система, профессия, развитие.

### KIRISH

Talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish tarbiya jarayoni bilan bog'liq. Chunki tarbiya shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi hisoblanib, u insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimgi va abadiy qadriyatdir. Ayniqsa, vatanparvarlikning shaxsning axloqiy kamolotini belgilovchi ma'naviy fazilatlar sirasiga kirishini inobatga olsak, bu fazilat kasbiy faoliyatda muhim o'rin tutishi yaqqol namoyon bo'ladi.

Vatanparvarlik tarbiyasi – bu insonning yurtini mardlarcha himoya qilishga qodirligi va tayyorligi, talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ma'naviy-axloqiy tizimidir. Vatanparvarlik fazilatini shakllantirishda tarbiyaning mazkur shakli o'z oldiga quyidagilarni asosiy vazifa qilib qo'yadi: talabalarda Vatanga muhabbat tuyg'usini mustahkamlash; har qanday faoliyatda mas'uliyat va javobgarlik hissini paydo qilish; qat'iyatlilik va yurtga sadoqat tuyg'usini shakllantirish.

Vatanparvarlik har bir insonning o'z yurti, hududi, milliy qadriyatlariga bo'lgan mehri va sadoqatidir. Talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish, ularni faol fuqarolarga aylantirish maqsadida pedagogik tizimda maxsus e'tibor talab etadi. Bugungi kunda globallashuv jarayonlari va turli madaniyatlarning aralashishi sharoitida vatanparvarlikni tarbiyalash yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

XIX-asrning ikkinchi yarmi – XX-asr boshlarida yashab, ijod etgan mutafakkirlar o'z asarlarida bola tarbiyasiga, yoshlarda vatanparvarlik, milliy iftixor tuyg'usini kamol toptirishga alohida e'tibor berganlar.

Talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish – bu faqatgina ta'lim muassasalari vazifasi emas, balki butun jamoa mas'uliyatidir. Pedagogik tizimda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar orqali yosh avlodning milliy hissiyatini shakllantirib borish zarur. Faqat shu tariqa biz kelajak avlodni mustaqil fikrlaydigan, o'z Vatani uchun xizmat qiluvchi fuqarolar sifatida tarbiyalashimiz mumkin bo'ladi.



Hozirgi kunda hukumatning yagona maqsadi insonparvar fuqarolik jamiyatini barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallashga yo'naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini keng yoyish, yurtni rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash yosh avlodni yetuk kadr, malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga hamda vatanparvarlikni singdirishga bog'liqdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A. Gayazov, V. Gladik, V. Jernov, V. Jurova, N. Irrolitova, T. Luginina, Z. Mazir, Ye. Mitina, L. Orinina, Y. Rodlesnaya, O. Roluxin, L. Rudchenko, Sh. Xayrulin, O. Yargin kabilar pedagogik jarayonda vatanparvarlikni tarbiyalash hamda fidoyilik, sadoqatlik va mas'uliyatlikni mustahkamlashning pedagogik asoslari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan.

Xorijlik olimlardan Ye. Banks, V. Berg, G. Biyesta, V. Link, D. Brown, B. Ward, M. Bown, K. Mutchlar talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish, "Tinchlik uchun ta'lim" g'oyasi asosida pedagogik faoliyatni amalga oshirishning turli jihatlarini yoritgan. P. Santiago, H. Mann, M. Georgelar o'quvchilarning vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik asoslari hamda vatanparvarlik fazilatining shakllanganligini pedagogik tashxis etish masalalarini o'rgangan. V. Chinaph, U. Hartmann, H. Engelhaupt, T. Drogegar ijtimoiy va siyosiy ta'limning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasidagi o'rni va ahamiyatini tadqiq etganlar. Shuningdek, talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishning psixologik jihatlarini X. Ingo, V. Grenni, T. Kellaxan, D. Morgan tomonidan tadqiq qilingan. R. Mixnerning demokratik jamiyatda milliylik va vatanparvarlik uyg'unligi, M. Viroli tomonidan vatanparvarlikning "muhabbat" tushunchasi bilan qiyosiy tahlili, S. Kautzning liberal demokratiya jarayonida vatanparvarlik g'oyalarining in'ikosi, J. Sitserning vatanparvarlikning diniy-ma'rifiy asoslariga tayangan tadqiqotlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ammo yuqoridagi tadqiqotlarda talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda falsafa ta'limi imkoniyatlari, falsafiy yondashuvlarning ahamiyati, falsafiy metodlarning o'rni hamda axloqiy tarbiyaning samaradorligi masalasi maxsus o'rganilmagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Professor Muhammadjon Quronovning fikricha, "insoniyat boshiga uzoq-yaqin tarixida qancha kulfat, kasofat tushgan bo'lsa, insonning o'z hayotiga, taqdiriga loqaydligi, beparvoligi sabab bo'lgan. Loqaydlik hodisasining mohiyatini aniqlash uchun, dastlab uning lug'aviy ma'nosi haqida tasavvurga ega bo'lish kerak. Buning uchun 'O'zbek tilining izohli lug'ati'ga qaralsa, loqayd degan so'z arab tilidan olinib: ahamiyat, e'tibor bermaslik; beparvolik, qiziqmaslik, befarqlik ma'nolarida ishlatilishi ko'rsatilgan. Darhaqiqat, insonning tashqi olam ta'sirini sezgan taqdirda ham, o'jarligi, mutaassibli oqibatida ongida qayd qilmasligi va amaliy faoliyatsizligi shu so'zda o'z ifodasini topgan". Bundan kelib chiqadiki, vatanparvarlik fazilati beparvo, befarq va bee'tibor insonlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Shu ma'noda loqaydlikning qarama-qarshi ma'nosi sifatida daxldorlik tushunchasini qo'llash mumkinligi kelib chiqadi.

Talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish uchun ularda muayyan sifatlarning tarbiyalanishiga erishish talab etiladi. Bunday fazilatlar quyidagicha tasniflanadi:

- axloqiy fazilatlar – mehnatsevarlik, fidokorlik, vijdonlilik, adolatparvarlik, e'tiqodlilik;
- irodaviy fazilatlar – tirishqoqlik, jur'atlilik, matonatlilik, sabrlilik, qat'iyatlilik, mardlik, dovyuraklik;
- ratsional fazilatlar – bilimlilik, qobiliyatlilik, onglilik, topqirlik, o'tkir zehnlilik, izlanuvchanlik;
- huquqiy fazilatlar – huquqiy ong va madaniyat, huquqiy tafakkur, huquqiy bilim, ko'nikma va malaka, huquqiy mas'uliyat.

Bugungi kunda turli yot g'oyalar va mafkuralarni tarqatish ma'naviy kurash quroli sifatida yanada takomillashdi. Bu usul ilgari ham qo'llanilgan edi. Hozir ham jahon mafkuraviy kurash taktikasida turli yolg'onlarni tarqatish orqali targ'ibot va tashviqot qilish bilan bir darajaga qo'yilishi bejiz emas. Bunday harakatlar natijasida jamiyatni ma'nan buzish, davlat siyosatini obro'sizlantirish, yoshlarimizda o'ziga, oilasiga, kelajakka ishonchsizlik, befarqlik, mas'uliyatsizlik tuyg'ularini uyg'otish, ularda o'z Vatani, millati himoyasiga nisbatan loqaydlikni tarbiyalashga erishishga harakat qilinmoqda.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Shakllantiruvchi tajriba bosqichi (2015–2017-yillar)da talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- tadqiqotning asosiy yo'nalishi aniqlab olindi;
- muammoning nazariy va amaliyotdagi holati o'rganilib, tahlil qilindi;
- ushbu yo'nalishda "Falsafa" fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish holati tahlil etildi;
- tajriba-sinov ishlarini o'tkazish rejalashtirilgan OTMlardagi falsafa fani o'qitiladigan kafedralarning moddiy-texnik bazasi, o'quv-uslubiy asos va shart-sharoitlar mavjudligi o'rganilib chiqildi;
- rejalashtirilgan OTM va tajriba-sinov ishlarini o'tkazish uchun moddiy-texnik, ilmiy-uslubiy negiz (baza) va pedagogik shart-sharoitlar mavjudligi o'rganildi;
- rejalashtirilgan OTMlardagi professor-o'qituvchilar tajriba-sinov ishlarini o'tkazishga metodik jihatdan tayyorlandi;
- tajriba-sinov ishlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan materiallar tayyorlandi.

Birinchi – asoslovchi bosqichda tajriba-sinov ishlari predmeti bilan bog'liq bo'lgan holatlar o'rganilib chiqildi. Bu jarayonni ifodalovchi savollar, testlar tuzilib, ular asosida OTMlardagi falsafa fani o'qitiladigan birinchi va ikkinchi kurs talabalari bilan so'rovnomalar (test va anketalar) o'tkazilib, natijalari tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishlarining ikkinchi – ta'kidlovchi bosqichida maxsus tashkil etilgan mashg'ulotlarda OTMlardagi "Harbiy ta'lim" yo'nalishi uchun falsafa fanini o'qitishda axborot texnologiyalarini qo'llash orqali olingan so'rovnomalar hamda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelindiki, falsafa fanini talabalarga nazariy hamda amaliy o'rgatishda fanga oid elektron o'quv qo'llanmalarni harbiy ta'limning barcha fanlarida qo'llash mumkin.

Shakllantiruvchi tajriba bosqichi (2018–2019-yillar)da OTMlarning talabalari tomonidan falsafa fanini o'rganishga oid nazariy hamda amaliy bilim va ko'nikmalarining samaradorligini oshirish darajalari aniqlandi, ya'ni quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- tajriba-sinov ishlarining ikkinchi bosqichida aniqlangan kamchiliklarga tuzatishlar kiritildi;
- o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalariga asoslangan holda ilmiy-uslubiy xulosalar chiqarildi va rasmiylashtirildi hamda tadqiqot natijalarini ilmiy-uslubiy asoslashda ularning ishning ilmiy farazi va maqsad-vazifalari bilan nechog'liq mushtarakligiga e'tibor berildi;
- tadqiqot ishlarining asosiy qismlaridan biri bo'lgan "Elektron o'quv qo'llanma" doimo nazoratda bo'ldi va ushbu elektron tizim orqali talabalar o'z-o'zini nazorat qilishni hamda o'z bilimlarini baholashni o'rgandilar;
- tadqiqot davomida to'plangan barcha ma'lumotlar matematik statistika metodlaridan foydalangan holda baholanib, uning ishonchiligi asoslandi va uslubiy ko'rsatmalarni o'quv jarayoniga joriy etishga oid tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish uchun 2020–2023-yillar mobaynida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining "Harbiy ta'lim" yo'nalishi, Farg'ona davlat universiteti va Buxoro davlat universitetining "Harbiy ta'lim" yo'nalishlari talabalari orasida anketa va test sinovlari o'tkazib borildi. Tajriba maydonlaridan sinov ishlariga jami 720 nafar talaba respondent sifatida qabul qilindi. Shuningdek, dissertant tomonidan tavsiya etilayotgan metodikaning samaradorligini xolis baholash maqsadida tajriba maydonlari bo'lgan OTMlardan jami 12 nafar (2020–2021-yillarda 6 nafar, 2021–2022-yillarda 6 nafar) amaliyotchi-o'qituvchilar ham jalb qilindi (1.1-rasm).

Tajriba guruhlarida mashg'ulotlar dissertant tomonidan ishlab chiqilgan yangi pedagogik texnologiya asosida, nazorat guruhlarida esa an'anaviy uslubda amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida tavsiya etilayotgan texnologiya bo'yicha dissertant va yuqorida bayon etilgan OTMlarning tegishli kafedra mutaxassis-lari ish olib bordilar.

Tadqiqot xususiyatidan kelib chiqib, amalga oshirilgan tajriba-sinov jarayonida milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga yo'naltirilgan ilg'or pedagogik texnologiyaning samaradorligi o'rganildi.

Falsafa ta'limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda talabalarga bilimni yetkazishning muhim jihatlardan biri – namoyish etish, ko'rsatish, tushuntirish hamda amaliy bajarish usullari bugungi kunda mashg'ulotlarni samarali tashkil etishga katta yordam bermoqda.



1-jadval: Tajriba maydonlarida sinov ishlariga jalb etilgan respondent-talabalari va o'qituvchilar

| OTMIlar nomi                                                                            | 2020-2021 yillar |                    | 2021-2022 yillar |                    | Jami           |                    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------|------------------|--------------------|------------------|--------------------|----------------|--------------------|
|                                                                                         | Talabalar soni   | O'qituvchilar soni | Talabalar soni   | O'qituvchilar soni | Talabalar soni | O'qituvchilar soni |
| Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining "Harbiy ta'lim" yo'nalishi | 127              | 2                  | 111              | 2                  | 238            | 4                  |
| Farg'ona davlat universiteti "Harbiy ta'lim" yo'nalishlari                              | 110              | 2                  | 114              | 2                  | 224            | 4                  |
| Buxoro davlat universiteti "Harbiy ta'lim" yo'nalishlari                                | 113              | 2                  | 125              | 2                  | 238            | 4                  |
| <b>Jami</b>                                                                             | <b>360</b>       | <b>6</b>           | <b>360</b>       | <b>6</b>           | <b>720</b>     | <b>12</b>          |

Respondent-talabalarga "Vatanparvarlikni qanday tushunasiz?" degan savol bilan murojaat qilinganida, ularning 51,7 foizi Vatanni sevish deb tushunishi, 6,7 foizi esa tug'ilgan joyini sevish deb bilishlari aniqlandi. Ularning 5,7 foizi esa vatanparvarlik deganda armiyada xizmat qilishni tushunadilar. Respondentlarning 35,9 foizi esa vatanparvarlikni so'rovnoma keltirilgan variantlardan boshqacha tarzda, o'z shaxsiy fikrlari asosida izohlashgan.

Shuningdek, respondentlarga "O'zingizni chinakam vatanparvar deb hisoblaysizmi?" degan savol bilan murojaat qilinganda, ularning 67,4 foizi o'zlarini vatanparvar deb hisoblashadi. So'rovda ishtirok etganlarning 5,7 foizi o'zlarini hali vatanparvar emasligini tan olishgan bo'lsa, yana 26,9 foiz talabalar bu savolga javob berishga qiynalganini bildirishgan.

Respondentlarga "Qaysi kasb egalarini chinakam vatanparvar deb bilasiz?" degan savol berilganda, ularning 50,7 foizi harbiy soha xizmatchilarini vatanparvarlik timsoli sifatida ko'rsatgan. Ularning 3,4 foizi sportchilarni, 2,2 foizi san'atkorlarni va 8,9 foizi ustoz-murabbiylarni vatanparvar sifatida e'tirof etgan. Ijtimoiy so'rovda ishtirok etgan talabalarning 34,8 foizi esa turli kasb egalarini vatanparvarlik timsoli sifatida ko'rsatgan.

Shuningdek, talabalarga "Sizningcha, kimlarda vatanparvarlik tuyg'usi yuqori?" degan savol bilan murojaat qilinganda, respondentlarning 34,9 foizi harbiy soha xodimlarida vatanparvarlik tuyg'usi yuqori ekanligini ta'kidlagan, 29,2 foizi esa ozodlik qahramonlarida bu tuyg'u yuqori deb hisoblagan. So'rovda qatnashganlarning 5,6 foizi davlat arboblari vatanparvarlik tuyg'usi kuchli bo'ladi, deb fikr bildirgan. Shuningdek, 30,3 foiz respondentlar boshqa turli kasb egalarini ko'rsatgan.

Ijtimoiy so'rovlarda ishtirok etgan respondentlarning "Vatanparvarlikni ko'proq qaysi sohada namoyon etgan bo'ladingiz?" degan savolga javoblari quyidagicha taqsimlandi: 19,1 foizi ilm sohasida, 32,6 foizi ta'lim sohasida, 7,9 foizi san'at sohasida va 5,6 foizi tadbirkorlik faoliyatida o'z vatanparvarligini namoyon etishini bildirgan. Respondentlarning 34,8 foizi esa vatanparvarlikni namoyon etishning eng maqbul sohasi sifatida harbiy xizmatni ko'rsatgan.

Ma'lumki, vatanparvar shaxsga qo'yiladigan talablar yuqori bo'ladi. Shu sababli respondentlarga "Sizningcha, vatanparvar qanday bo'lishi kerak?" degan savol bilan murojaat qilindi. Ularning 34,6 foizi Vatanni sevuvchi va asrab-avaylovchi insonlarni haqiqiy vatanparvar deb hisoblaydi. 21,1 foizi Vatanga sadoqat va uni himoya qilishni asosiy mezon deb biladi. 17,2 foizi ma'naviyatlilik va halollikni muhim deb hisoblaydi. 14,8 foizi Vatan uchun jonini fido qilishni asosiy belgi sifatida ko'rsatadi. 12,3 foizi esa shaxs sifatida shakllangan va mas'uliyatli bo'lgan insonni haqiqiy vatanparvar deb hisoblaydi.

Talaba-yoshlarning vatanparvarlik haqidagi bilim darajasini aniqlashga qaratilgan so'rovlarda ularning o'zbek xalqiga xos qahramonlik dostonlarini bilish darajasi ham o'rganildi. Natijalar quyidagicha:

|                |       |
|----------------|-------|
| 1. Alpomish    | 42.2% |
| 2. Rustamxon   | 17.4% |
| 3. Kuntug'mish | 15.4% |
| 4. Go'ro'g'li  | 12.1% |
| 5. Ravshan     | 5.4%  |
| 6. To'maris    | 4.7%  |
| 7. Shiroq      | 2.8%  |





Ma'lumki, vatanparvarlik ko'plab omillar va vositalar asosida shakllanadi hamda turli yo'llar va usullar orqali mustahkamlanadi. Talaba-yoshlarning bu boradagi fikrlarini aniqlash maqsadida ularga "Vatanparvarlikni shakllantirishda qaysi omillar yuksak ahamiyatga ega?" degan savol bilan murojaat qilindi. Respondentlarning 42,4 foizi ma'naviy omillarni muhim deb hisoblaydi. 32,4 foizi haqqoniy yoritilgan tarixning o'rnini yuqori baholagan. 8,1 foizi madaniy omillarga e'tibor qaratgan. Shuningdek, 17,1 foiz respondentlar boshqa omillarning ham muhimligini ta'kidlagan.

Talaba-yoshlar o'rtasida vatanparvarlikni shakllantirishda imkoniyatlari kengroq sohalar:

| Sohalar nomi | Javoblar miqdori |
|--------------|------------------|
| 1. Kino      | 18.9%            |
| 2. Teatr     | 11.6%            |
| 3. Kitob     | 61.1%            |
| 4. Qo'shiq   | 2.1%             |
| 5. Internet  | 6.3%             |

Insonning o'z vatanparvarligini namoyon qilish imkoniyatlari va darajalarini baholash ham muhim hisoblanadi. Shu maqsadda respondentlarga "Vatanparvarlik ko'rsatishda qaysi jihatni muhim deb hisoblaysiz?" degan savol bilan murojaat qilindi. Javoblar tahlili ko'rsatishicha, so'rovda ishtirok etgan yoshlarning 58,4 foizi aqliy imkoniyatlarni birinchi o'ringa qo'yadi. Respondentlarning 4,5 foizi jismoniy imkoniyatlarni, 2,2 foizi lavozim-mansab imkoniyatlarini, 9,0 foizi esa hissiy imkoniyatlarni muhim deb hisoblaydi. So'rovlarda ishtirok etgan yoshlarning 25,9 foizi esa insonning vatanparvarligini namoyon etishda so'rovnomada keltirilmagan turli jihatlarni ko'rsatgan.

Savollarga berilgan javoblardan talaba-yoshlarning Vatanni sevish, asrash, himoya qilish va Vatan kelajigiga befarq emasligi kuzatiladi. Biroq natijalar tahlili yoshlarga vatanparvarlik va harbiy-vatanparvarlik tushunchalarining mazmun-mohiyatini to'g'ri tushuntirish, ularda bu fazilatlarini shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarining samaradorligini oshirish, bu borada ta'sirchan usul va vositalardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Quyida "Falsafa" fani bo'yicha yaratilgan o'quv qo'llanma asosida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi to'g'risida so'z yuritiladi. Ushbu o'qitish uslubida an'anaviy usullardan farqli ravishda o'qitishning maqsadi, mazmuni, shakli, vositasi va metodikasi kabi tarkibiy qismlar orasidagi uzviy bog'liqlik axborot texnologiyalarining usul va vositalari yordamida ta'minlanadi. Bu yerda asosiy o'qitish vositasi sifatida zamonaviy axborot texnologiyalari, multimediali elektron o'quv qo'llanma usul sifatida qo'llaniladi.

Bugungi kunda an'anaviy o'qitish usullari asosida talabalarni dars jarayoniga qiziqtirish, muammoli o'quv mashg'ulotlarini hamda mustaqil ishlash soatlarini samarali tashkil etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu bois fanlarni o'qitishni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida olib borish maqsadga muvofiqdir. Axborot texnologiyalari asosida dars o'tish asosan o'qitilayotgan fanning mavzusiga tegishli jarayonlarni o'quv qo'llanmalar va virtual stendlar asosida obrazlar ko'rinishida ifodalash hamda talabalarga yetkazib berish orqali amalga oshiriladi.

Talabalarning mazkur bo'lim bo'yicha falsafiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda axborot texnologiyalari vositasida dars o'tish katta samara beradi. Talabalar o'quv materiallarining mazmunini to'liq tushunib yetishi uchun u raqamli texnologiyalar yordamida namoyish etiladi. Talabalarning kompyuterda tegishli mavzular ustida amaliy shug'ullanishi natijasida ularning falsafiy bilimlari ko'nikmaga, ko'nikmalari esa malaka darajasiga oshiriladi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil qilishda qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda talabalarning bilim darajasini ularning kelajakdagi faoliyatini e'tiborga olgan holda aniqlash vazifasi qo'yildi.

Tajriba-sinov ishining maqsadi elektron o'quv qo'llanmani pedagogik texnologiya sifatida ta'lim jarayoni amaliyotiga joriy etish yo'llarini aniqlash va ularning samaradorligini baholashdan iborat bo'ldi. Ushbu jarayonda asoslovchi (izlanuvchi) va ta'kidlovchi tajriba-sinov bosqichlari doirasida talabalarning falsafiy bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanganlik darajasini aniqlashga qaratildi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Vatanparvarlik ona yurtining, xalqining tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo'lida fidoyilik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilatdir. U Vatanga, xalqqa bo'lgan hurmat, muhabbat va ishonch tuyg'usi sifatida muayyan umumiy manfaatlar hamda maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o'rin oladi, faoliyatiga ta'sir etib, ularni mas'uliyatli vazifalarni bajarishga



safarbar etuvchi kuch ekanligi aniqlashtirildi. Tahlillar asosida vatanparvarlik davlat yashovchanligining va jamiyat rivojlanishining muhim ichki safarbarlik manbai, shaxsning faol fuqarolik qarashlari, uning o'z Vataniga fidokorona xizmat qilishga tayyorligi sifatida namoyon bo'luvchi ma'naviy asos ekanligi umumiy xulosa sifatida shakllantirildi.

Talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish buzg'unchi g'oyalarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitetning shakllanishi bilan ham bog'liqligi asoslandi. Bunda vatanparvarlik fazilati rivojlangan talabanning mafkuraviy immuniteti kuchli bo'lishi, mafkuraviy immunitetga ega bo'lgan talabanning esa ma'naviyati yanada yuksalib borishiga zamin yaratishi ilmiy jihatdan dalillandi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Otamurotov S., Mamashokirov S., Xolbekov A., Lafasov M. Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. – Toshkent: IJOD DUNYOSI, 2001. – B. 18.
2. Freyd Z. Psixologiya bessoznatel'nogo: sbornik proizvedeniy / tuzuvchi, ilmiy muharrir, kirish so'zi muallifi M.G. Yaro-shevskiy. – Moskva: Prosveshcheniye, 1990. – 517 b.
3. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – Toshkent: Universitet, 1998. – B. 148–164.
4. Harbiy xizmat axloqi. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004. – 110 b.
5. Ergashev B.E., Ne'matov B.M. Ma'naviy-axloqiy va harbiy tarbiyani takomillashtirish yo'llari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2004.
6. Tashanov A. Vayronkor g'oyalar va buzg'unchi mafkuralar (ma'naviyatga tahdid soluvchi illatlar). – Toshkent: Turon-zaminziyo, 2015. – 400 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №3(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.